

Samarqand viloyatida Demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni **4 413,7** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **46,4** ming nafarni, vafot etganlar **9,6** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **36,8** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni **10,3** ming kishini va ko'chib ketganlar soni **13,2** ming kishini, qayd etilgan nikohlar **10,1** mingtani, nikohdan ajralishlar **2,6** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

4 413,7 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

46,4 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

9,6 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

10,3 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar

13,2 *ming kishi*

Nikohlar soni

10,1 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

2,6 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Samarqand viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra **4 413,7** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **78,0** ming kishiga yoki **1,8** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 607,5** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **36,4** %), qishloq joylarda esa **2 806,2** ming kishi (**63,6** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **2 189,2** ming kishini (**49,6** %), erkaklar esa **2 224,5** ming kishini (**50,4** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4 335,7	4 413,7	101,8
Samarqand sh.	600,8	609,7	101,5
Kattaqo'rg'on sh.	96,4	97,6	101,2
tumanlar:		0,0	
Oqdaryo	178,9	182,5	102,0
Bulung'ur	208,8	212,8	101,9
Jomboy	196,1	200,1	102,0
Ishtixon	284,9	290,5	102,0
Kattaqo'rg'on	302,5	307,7	101,7
Qo'shrabot	145,7	147,9	101,5
Narpay	233,4	236,8	101,5
Payariq	282,2	287,5	101,9
Pastdarg'om	395,5	403,1	101,9
Paxtachi	155,5	157,6	101,3
Samarqand	281,0	286,0	101,8
Nurobod	166,9	169,6	101,6
Urgut	578,5	591,3	102,2
Toyloq	228,6	233,3	102,0

Samarqand viloyatida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **263,1** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4,6** kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **258,5** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **46,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,3** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **3,5** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **9,6** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **46,4** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **24,0** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,7%**), qiz bolalar soni **22,4** ming kishini (**48,3%**) va shahar joylarida **15,3** ming kishini (**33,0%**), qishloq joylarida **31,1** ming kishini (**67,0%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **9,6** ming kishini, shundan erkaklar **5,4** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **56,3%**), ayollar **4,2** ming kishini (**43,7%**) va shahar joylarida **3,5** ming kishini (**36,5%**), qishloq joylarida **6,1** ming kishini (**63,5%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **10,1** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,4** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **2,6** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,4** ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **10,1** ming birlikni, shundan shahar joylarida **3,5** ming birlikni (**34,7%**), qishloq joylarida **6,6** ming birlikni (**65,3%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **2,6** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,1** ming birlikni (**42,3%**), qishloq joylarida **1,5** ming birlikni (**57,7%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik




V. Aholi migratsiyasi

2026-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **10 264** kishini, ko'chib ketganlar jami soni **13 215** kishini tashkil qildi.

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Samarqand viloyati	10 264	10 242	22	13 215	13 167	48
Samarqand sh.	2 972	2 964	8	3 145	3 128	17
Kattaqo'rg'on sh.	677	677		681	681	
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	472	463	9	448	448	
Bulung'ur	367	366	1	560	560	
Jomboy	362	360	2	375	375	
Ishtixon	435	434	1	658	657	1
Kattaqo'rg'on	550	550		1 062	1 062	
Qo'shrabot	257	257		603	603	
Narpay	293	293		701	701	
Payariq	532	532		779	778	1
Pastdarg'om	716	716		738	736	2
Paxtachi	599	599		986	986	
Samarqand	1 088	1 088		979	976	3
Nurobod	254	254		483	483	
Urgut	434	433	1	724	700	24
Toyloq	256	256		293	293	

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul: Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi	Ijrochi: K.Tosheva 55 701 80 00 (3070)	Manzil:
--	---	----------------